

Kino, televideniye va radio san'ati hamda Kutubxona-axborot faoliyati fakultetlari tarkibidagi kafedralar ishtirokida davom ettirildi.

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida kafedralar faoliyatining 2024-yil yakunlari hamda 2025-yilda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish kunning birinchi yarmida Kino, televideniye va radio san'ati hamda kunning ikkinchi yarmida Kutubxona-axborot faoliyati fakultetlari tarkibidagi kafedralar ishtirokida davom ettirildi.

Tanqidiy va tahliliy o'tgan yig'ilishda barcha prorektorlar, fakultet dekanlari va o'rinbosarlari, Kino, televideniye va radio rejissyorligi, Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati, San'atshunoslik va madaniyatshunoslik, Kutubxona-axborot faoliyati, Ijtimoiy-gumanitar fanlar, Axborot-texnologiyalari, O'zbek va jahon filologiyasi kafedralari mudirlari va professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Yig'ilishda Nodirbek Sayfullayev bunday tartibdagi yig'ilishlardan ko'zlangan asosiy maqsad kelgusi rejalarni aniq belgilab olish, bundan keyin kafedralar faoliyatida qaysi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi, bir so'z bilan aytganda bir yil davomida kafedra va ularning a'zolari

institut hamda soha rivoji uchun qanday xizmat qiladi degan savollarga javob olish ekanligini, taqdim etilgan istiqbolli rejalar, albatta, kelgusida tahlil qilib borilishini aytib o'tdi.

□□Kafedra mudirlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha hisobot va rejalari haqida ma'lumot berdilar.

Darslik, o'quv qo'llanmalar yozish va nashr etishga tayyorlash, dunyoning nufuzli OTMLarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazgan professor-o'qituvchilar, ochiq dars, sinf konsert, va mahorat darslarini o'tkazganligi, ilmiy unvon olgan professor-o'qituvchilar, professor-o'qituvchilarning bilim darajasi (xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha), akademik almashuv, Hemis platformasiga fan bo'yicha kontent joylashtirilganligi, xorij va respublikada malaka oshirganligi, xorijiy va mahalliy jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish, patent olish, tezislar va monografiya nashr etish, axborot tahliliy materiallar tayyorlash, ijodiy ishlar yaratish, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlaganlar va himoya qilganlar, talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlariga hamda fan va ilmiy to'garaklariga rahbarlik qilish, professor-o'qituvchilar nashrlariga iqtiboslar, xalqaro konferensiyalar, seminarlar, ilmiy yoki o'quv loyihalarida talabalar va professor-o'qituvchilarning ishtiroki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar, xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari grantlari va xorijiy ilmiy fondlar buyurtmalari hisobiga olingan mablag'lar, sohalar buyurtmalari asosida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot faoliyatidan olingan moliyaviy mablag'lar, davlat grantlari asosida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan mablag'lar, kafedrada faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, to'garaklar faoliyati, professor-

o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy va jamoat ishlaridagi tashabbuslari, talabalarni Prezident hamda nomli stipendiyalar va respublika olimpiadalari, tanlovlar hamda musobaqalarga tayyorlash, sport, madaniy-ma'rifiy va ijodiy tadbirlar o'tkazish.

Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar tahlil etilib, kelgusi yil uchun rejalar ko'rib chiqildi. Qatnashchilarining tavsiya va fikr-mulohozalari tinglandi.

Shuningdek, professor-o'qituvchilar tomonidan berilgan savollarga institut rektori va prorektorlar tomonidan batafsil javob berildi.

Yig'ilishga xulosa qilar ekan, Nodirbek Sayfullayev barchamizning oldimizda turgan eng dolzarb vazifa bu talabalarga sifatli ta'lim berish ekanligini ta'kidladi hamda soha rivojiga qaratilgan takliflarni institut vakolati doirasida amaliyotga tadbqiq etishga tayyorligini bildirdi.

**Teatr san'ati fakulteti
tarkibidagi kafedralar
faoliyatining 2024-yil
yakunlari hamda 2025-yilda
o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot
va ma'naviy-ma'rifiy ishlar**

samaradorligi hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

✓□Bugun kunning ikkinchi yarmida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida Teatr san'ati fakulteti tarkibidagi kafedralar faoliyatining 2024-yil yakunlari hamda 2025-yilda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Tanqidiy va tahliliy o'tgan yig'ilishda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekani, fakultet tarkibidagi kafedralar (Dramatik teatr va kino san'ati, Musiqali teatr san'ati, Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati, Qo'g'irchoq teatri san'ati, Sahna nutqi, Sahna harakati va jismoniy madaniyat, Vokal) mudirlari va professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Yig'ilish avvalida Nodirbek Sayfullayev 2024-yil 22-noyabr kuni e'lon qilingan "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori sohada yangi davrni boshlab berganini, ushbu qaror institut,

ayniqsa, Teatr san'ati fakultetining kelgusi faoliyati uchun dasturul amal bo'lib xizmat qilishini, fakultetning kelgusi rejalari aynan usbu qaror ijrosiga qaratilishi lozimligini, bu hujjat orqali juda ulkan imkoniyatlar yaratilganini va ulardan unumli foydalanish lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Har bir kafedra mudiri amalga oshirilgan ishlari va kelgusi rejalari bilan batafsil tanishtirdi. Ularning hisobotlari rahbariyat hamda professor-o'qituvchilar tomonidan atroflicha muhokama qilinib, kerakli tavsiyalar berib o'tildi.

Kafedralar faoliyati tanqidiy tahlil qilinib, rejalashtirilgan ammo bajarilmay qolgan ishlarga asosiy e'tibor qaratildi.

Shuningdek, kafedralarning kelgusi faoliyati qay tartibda amalga oshiriladi, qaysi vazifalar ustuvor bo'ladi, ularning faoliyati qaysi mezonlarga ko'ra baholanadi hamda kafedra institut va san'at va madaniyat rivoji uchun qanday rejalalar va maqsadlarga ega kabi savollarga javob topish hamda muammolarni o'rganish va yechim topish kabi jihatlar muhokama markazida bo'ldi.

Institut rektori kelgusida Muqimiy nomidagi musiqali teatrida Musiqali teatr san'ati kafedrasining, O'zbekiston davlat Yoshlar teatrida Estrada va ommaviy tomoshalar san'ati kafedrasining filiallarini ochish va talabalarining amaliyot bilan bog'liqligini yanada oshirish rejalashtirilayotganini, shuningdek, yuqoridagi qaror asosida talabalarining haftada kamida 2 kun teatrlarda amaliy mashg'ulotlar olib borishi yo'lga qo'yilishi, bu esa institutimiz tayyorlayotgan kadrlar malakasining yanada yuqori bo'lishiga hissa qo'shishini aytib o'tdi.

Ertaga 4-yanvar kuni xuddi shunday yig'ilishlar Kino, televideniye va radio san'ati hamda Kutubxona-axborot faoliyati fakultetlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan.

**Xalq ijodiyoti fakulteti
tarkibidagi kafedralar
faoliyatining 2024-yil
yakunlari hamda 2025-yilda
o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot
va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
samaradorligi hamda ta'lim
sifatini yangi bosqichga olib
chiqish bo'yicha amalga
oshirilishi rejalashtirilgan
vazifalarga bag'ishlangan
kengaytirilgan yig'ilish
bo'lib o'tdi.**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligida Xalq ijodiyoti fakulteti tarkibidagi kafedralar faoliyatining 2024-yil yakunlari hamda 2025-yilda o'quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi hamda ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalarga bag'ishlangan kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.

Tanqidiy va tahliliy o'tgan yig'ilishda barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekani, fakultet tarkibidagi kafedralar (Madaniyat va san'at menejmenti, Folklor va etnografiya, Milliy qo'shiqchilik kafedrası, Cholg'u ijrochiligi) mudirlari va professor-o'qituvchilari ishtirok etdi.

Yig'ilish avvalida Nodirbek Sayfullayev 2024-yil yakunlari bo'yicha xulosa qilar ekan, bir qancha ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar bo'lgani, shu barobarda, bu natijalar institut rahbariyatini to'liq qanoatlantirmasligini, kelgusi 2025-yilda ham institut faoliyatini yanada takomillashtirish, provardida esa yurtimiz san'ati va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shish borasida ulkan reja va maqsadlar bor ekanligini, ularni amalga oshirish uchun ushbu dargohda faoliyat olib borayotgan har bir xodim bir jamoa bo'lib, fidoiylik bilan maqsad sari harakat qilishi lozimligini ta'kidladi.

□□Kafedra mudirlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha hisobot va rejalari haqida ma'lumot berdilar.

Darslik, o'quv qo'llanmalar yozish va nashr etishga tayyorlash, dunyoning nufuzli OTMlarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazgan professor-o'qituvchilar, ochiq dars, sinf konsert, va mahorat darslarini o'tkazganligi, ilmiy unvon olgan professor-o'qituvchilar, professor-o'qituvchilarning bilim darajasi (xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha), akademik almashuv, Hemis platformasiga fan bo'yicha kontent joylashtirilganligi, xorij va respublikada malaka oshirganligi, xorijiy va mahalliy jurnallarda ilmiy maqolalar chop etish, patent olish, tezislar va monografiya nashr etish, axborot tahliliy materiallar tayyorlash, ijodiy ishlar yaratish, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish, falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tayyorlaganlar va himoya qilganlar, talabalarning ilmiy-tadqiqot va ilmiy-ijodiy ishlariga hamda fan va ilmiy to'garaklariga rahbarlik qilish, professor-o'qituvchilar nashrlariga iqtiboslar, xalqaro

konferensiyalar, seminarlar, ilmiy yoki o'quv loyihalarida talabalar va professor-o'qituvchilarning ishtiroki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid dasturlar va elektron ma'lumotlar bazalari uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilinadigan turli materiallar, xorijiy ilmiy-tadqiqot markazlari grantlari va xorijiy ilmiy fondlar buyurtmalari hisobiga olingan mablag'lar, sohalar buyurtmalari asosida o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot faoliyatidan olingan moliyaviy mablag'lar, davlat grantlari asosida o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlardan olingan mablag'lar, kafedrada faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar o'rtasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, to'garaklar faoliyati, professor-o'qituvchilarning ma'naviy-ma'rifiy va jamoat ishlaridagi tashabbuslari, talabalarni Prezident hamda nomli stipendiyalar va respublika olimpiadalari, tanlovlar hamda musobaqalarga tayyorlash, sport, madaniy-ma'rifiy va ijodiy tadbirlar o'tkazish.

Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilgan ishlar tahlil etilib, kelgusi yil uchun rejalar ko'rib chiqildi. Qatnashchilarining tavsiya va fikr-mulohozalari tinglandi.

□Yig'ilishda ta'kidlanganidek, bugungi uchrashuvdan maqsad kafedralarning kelgusi faoliyati qay tartibda amalga oshiriladi, qaysi vazifalar ustuvor bo'ladi, faoliyati qaysi mezonlarga ko'ra baholanadi hamda kafedra institut va san'at va madaniyat rivoji uchun qanday rejalar va maqsadlarga ega kabi savollarga javob izlash hamda muammolarni o'rganish va yechim topishdan iborat.

Bugun Muqimiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik musiqali teatrida O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti “Musiqali teatr san‘ati” kafedrası filialining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Ushbu filialga O‘zbekiston xalq artisti Lutfixonim Sarimsoqova nomi berildi.

Marosim avvalida Madaniyat vaziri o‘rinbosari Murodjon Majidov so‘zga chiqib bu tashabbus talabalarning kelgusida yetuk ijodkor bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etishini, bu talabalarning bevosita amaliyot bilan chambarchas bog‘lanishlariga xizmat qilishini qayd etib o‘tdi.

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev bugun yurtimizda barcha sohalarda bo‘lgani kabi teatr san‘ati rivoji, uning tom ma‘nodagi ibratxonaga aylanishi uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilayotgani, xususan, 2024-yil 22-noyabr kuni qabul qilingan “Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” Prezident Qarori soha taraqqiyotida tarixiy davrni boshlab berganini ta’kidladi.

Ushbu qaror yurtimiz teatrlariga mutaxassis-kadrlar yetkazib

beruvchi oliy ta'lim muassasasi sifatida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining bugungi faoliyati uchun ham dasturul amalga aylanganini, jumladan filialning ochilishi ham ushbu qaror ijrosini ta'minlashga qaratilganini, kelgusida boshqa kafedralarning ham turli teatrlarda filiallari tashkil etilishi rejalashtirilayotganini ma'lum qildi.

Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali drama teatri direktori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Azim Mullaxonov bu filial bir tomondan kelgusida talabalarning ijodiy mahoratining yanada sayqallanishi va amaliy tajribaga ega bo'lishiga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan teatrning kelgusida yetuk mutaxassis-kadrlarga ega bo'lishida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Shundan so'ng teatr va institutning yosh ijodkorlari tomonidan tayyorlangan ariya va duetlarga navbat berildi.

Kafedra filiali uchun ajratilgan xona talabalar uchun juda ham qulay shaklda hamda milliylik asosida jihozlangan bo'lib, jadid bobolarimizning portretlari, Lutfixonim Sarimsoqovaning hayoti va ijodiga oid fotosuratlar, musiqali teatr san'atining ulug' darg'alarining suratlari bilan bezatildi.

Shuningdek, kitob javoni ham bo'lib, undan sohaga oid muhim darsliklar, qo'llanmalar va mumtoz adabiyotimiz namunalari o'rin egallagan. Nodirbek Sayfullayev ushbu kitob fondini yanada boyitilishini va kelgusida shaxsan o'zi kitoblar sovg'a qilishini ma'lum qildi.

Ushbu xonaga televezor ham o'rnatilgan bo'lib, musiqali teatr tarixidagi eng durdona asarlarni tomosha qilish va tahlil qilish imkoniyati yaratilgan.

Lutfixonim Sarimsoqovaning shogirdlari O'zbekiston xalq artistlari Mehri Bekchanova va Odina G'oziyevalar filialga ustozning nomi berilganidan bag'oyat mamnun ekanligini ta'kidlab, uning insoniy fazilatlarini hamda o'zbek musiqali teatri rivojida tutgan o'rni haqida fikr bildirishdi. Bu

filialga kelib tahsil oladigan o'quvchilar bilim bilan birgalikda albatta, ustozlardan tajriba ham o'rganishlarini, bu soha rivoji uchun muhimligini talkidlab, tashabbus uchun minnatdorchilik bildirishdi.

Xitoy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari kengaymoqda

Ma'lumki, O'zbekiston bugun ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Yangi O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosiy holati dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda. Bir so'z bilan aytganda, yurtimiz xalqaro maydonda tobora nufuzli davlatga aylanib bormoqda.

Xususan, Davlatimiz Rahbarining 2024-yil yanvar oyida Xitoy Xalq Respublikasiga amalga oshirilgan davlat tashrifi davomida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qaratilgan bir qancha hujjatlar qabul qilingan edi.

Ayniqsa, "O'zbekiston-Xitoy" birinchi ta'lim forumi ikki davlatning 150 ta oliy ta'lim muassasalari rektorlarini bir davraga jamlagan tadbirga aylandi

Forumda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda bir qator Xitoy Xalq Respublikasi oliy ta'lim muassasalari hamkorlik kelishuvlariga erishgan edi.

Ushbu kelishuvlarni institut imkoniyati va ta'lim

yo'nalishlariga moslagan holda qayta ko'rib chiqish hamda yangi hamkorlik aloqalarini o'rnatish maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, professor Nodirbek Sayfullayev rahbarligidagi delegatsiya Xitoy Xalq respublikasida xizmat safarida bo'lib qaytdi.

Safar davomida vakillarimiz Xitoyning 5 ta nufuzli oliy ta'lim muassasida bo'lib, ularning rahbariyati bilan muloqot qildi hamda bir qancha hamkorlik kelishuvlari imzoladi. Shuningdek, Pekin Ipak yo'li madaniy almashinuv markazida ham uchrashuv o'tkazildi.

Dastlab **Tianjin chet tillari universitetida** rektor, professor Li Yingying bilan samimiy muloqot bo'lib o'tdi hamda hamkorlik kelishuvi imzolandi. Shuningdek, hamkorlikda pyesalar yaratish va sahnalashtirish masalasi ham muhokama qilindi.

Bugungi kunda ushbu universitet O'zbekistonning 28 ta oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik shartnomalarini imzolagan. Umumiy hisobda esa 60 ta davlatdan 350 ta oliy ta'lim muassasasi bilan shartnomalari bor. Hozirda u yerda 3200 dan ortiq xorijiy talaba tahsil olmoqda. Universitetda 11 ming bakalavr, 1000 nafar magistrant bor.

Universitetda jami 58 ta bakalavriat yo'nalishi bo'lib, shundan 31 tasi tillarga oid, shuningdek, 50 ta magistratura mutaxassisligi mavjud. Shuningdek, ushbu universitetda menejment, san'atshunoslik va jurnalistika yo'nalishlari mavjud.

Universitet rektori Li Yingying xonim vakillarimizni universitetning tarixi va yutuqlari aks etgan muzeyi bilan tanishtirdi.

Bundan tashqari, ular ushbu oliy ta'lim muassasasida yo'lga qo'yilgan o'quv jarayonlari, talaba va professor-o'qituvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Xizmat safari davomida hamkorlik o'rnatilgan yana bir oliy

ta'lim muassasasi **Tianjin san'at va media kolleji** bo'ldi.

Bu muassasada ijrochi direktor Li Xiaohua boshchiligidagi oliy ta'lim muassasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazilib, ikki tomonlama hamkorlik aloqalari o'rnatish, birgalikda amalga oshiriladigan turli tadbirlar muhokama qilindi hamda hamkorlik kelishuvi imzolandi.

Kollej 2004-yilda tashkil topgan bo'lib, bugungi kunda 7 ta maktab (fakultet) bor, ulardan 6 tasi san'atga, jumladan, musiqa va raqsga, drama va vokalga, radio va televideniye, multimedia va raqamli san'atga ixtisoslashgan.

Shuningdek, ijrochi direktor O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bilan hamkorlik qilishdan mamnun bo'lishini ta'kidladi.

Rasmiy uchrashuvdan so'ng vakillarimiz ushbu oliy ta'lim muassasasida yo'lga qo'yilgan o'quv jarayonlari, talaba va professor-o'qituvchilarga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Dastlab sun'iy intellektdan musiqa san'atida foydalanish mavzusida ma'ruza tinglashdi. Keyin vokal bo'yicha yakka dars o'tiladigan xonada Xor yo'nalishida tahsil oluvchi 2-kurs talabalari ijrosida Xitoy milliy qo'shiqlarini tinglashdi. So'ng elektron musiqa auditoriyasini ko'zdan kechirishdi.

Shuningdek, televideniye va rejissura yo'nalishida tahsil oluvchi talabalar joylashgan binoda dublyaj aktyorlarining ishi va televideniyeining jonli efirida ishlash bo'yicha mashg'ulotlarni kuzatishdi. Kutubxonaga ham tashrif buyurib, bu yerda kitobxonlarga yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Vakillarimiz **Tyanjin musiqa konservatoriyasida** ham bo'lib, vitse prezident Bao Yang bilan uchrashdi hamda ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasidagi aloqalarni hamkorlik kelishuvi bilan mustahkamlashga, uning doirasida ilmiy-ijodiy va o'quv

jarayonlarida hamkorlik aloqalarini yuqori saviyada davom ettirishga kelishib olindi.

Samimiy uchrashuvdan so'ng delegatsiya konservatoriyaning kampusi hamda uning hududida joylashgan ikkita konsert zalini ko'zdan kechirdi.

Shundan so'ng yakka dars o'tiladigan auditoriyalarda bo'lishdi hamda talabalarning o'zlariga auditoriyalarni bron (band) qilish imkonini beradigan tizim bilan tanishishdi.

Ma'lumot o'rnida, Tyanjin musiqa konservatoriyasi 1950-yilda tashkil etilgan. Bugungi kunda konservatoriyada 3200 ga yaqin talaba tahsil oladi va 10 ta kafedrada 450 nafar o'qituvchi faoliyat yuritadi. Asosan barcha yo'nalishlar musiqa ta'limi bilan bog'liq, lekin musiqadan tashqari, ularda menejment, xoreografiya va teatr san'ati yo'nalishlari ham mavjud.

Safar davomida istiqbolli kelishuv imzolangan yana bir oliygoh **Xebey kommunikatsiya universiteti** bo'ldi.

Bu yerda universitet prezidenti Li Jinyun xonim boshchiligidagi oliy ta'lim muassasasi vakillari bilan uchrashuv o'tkazildi hamda hamkorlik kelishuvi imzolandi. Shundan so'ng vakillarimiz universitet kampusini ko'zdan kechirishdi.

Dastlab vakillarimiz Kino va televideniye kollejiga tashrif buyurishdi hamda sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llaniladigan o'quv auditoriyalarini tomosha qilishdi. Shuningdek, tomoshabinlarning filmga bo'lgan reaksiyasini kuzatish uchun maxsus sensorlar bilan jihozlangan kichik kinoteatrni ko'rishdi. Har xil sig'imga ega bo'lgan uchta namoyish paviloniga tashrif buyurishdi. To'liq haqiqiy televideniye studiyasini, ovoz yozish va dublyaj studiyasini ko'zdan kechirishdi va haqiqiy dekoratsiyalar va virtual reallik elementlari bilan filmlar suratga olish mumkin bo'lgan studiya faoliyatini ham kuzatishdi.

Shundan so'ng, delegatsiya Tasviriy san'at va dizayn akademiyasiga tashrif buyurdi hamda tasviriy san'at yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar ijod qiladigan o'quv auditoriyalarini ko'rishdi. Bundan tashqari, teatr qo'g'irchoqlari, kashtachilik va kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqariladigan ustaxonalar faoliyati bilan tanishishdi.

Ma'lumot o'rnida, Xebey kommunikatsiya universiteti 2000-yilda tashkil etilgan bo'lib, Xitoyning birinchi xususiy universiteti hisoblanadi. Bugungi kunda bakalavriyat, magistratura va PhD yo'nalishlarida kadrlar tayyorlaydi.

Ayni paytda universitetda 30 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda. Bakalavriatda 50 ta, asosan madaniyat va san'at sohalari bilan bog'liq yo'nalishlar bor. Magistratura bo'yicha san'at va jurnalistika, PhD bo'yicha esa kino mutaxassisligi mavjud.

Delegatsiyaning Xitoy Xalq Respublikasiga xizmat safari davomida navbatdagi manzili – Xitoyning shimoliy-sharqida joylashgan Jilin shahri bo'ldi.

Bu yerda **Jilin xalqaro ta'lim universiteti** prezidenti Sin Xe xonim va universitet prorektori janob Van Chjigolar bilan uchrashuv o'tkazildi va hamkorlik kelishuvi imzolandi.

Rasmiy qismdan so'ng, delegatsiya universitet kampusini ko'zdan kechirdi. Dastlab, ular kampus hududida joylashgan 5 qavatli kutubxona binosida bo'lishdi.

Ta'kidlash joizki, kutubxona fondi taxminan 1 million nomdagi bosma adabiyotlar va 1,7 million nomdagi elektron nashrlardan iborat. Binoning dizayni shunday ishlab chiqilganki, unda o'quv zallari va ovoz chiqarib o'qish zallari, individual o'quv xonalari hamda kichik guruhlarda mustaqil mashg'ulotlar olib borish uchun mo'ljallangan xonalar mavjud. Shuningdek, magistraturaga kirishni rejalashtirayotgan talabalar uchun 600 o'ringa ega alohida zal ham tashkil etilgan.

E'tiborga molik maskanlardan yana biri – “global qishloq” bo'lib, u yerda talabalar xorijiy tillarni o'rganish jarayonida to'liq madaniy muhitga singib ketish imkoniyatiga ega.

Delegatsiya shuningdek, talabalar turar joylari bilan ham tanishib, kampus hududida talabalarga yaratilgan sharoitlarni ko'zdan kechirdi. Sayohat yakunida mehmonlar san'at va turizm maktabi joylashgan binoga tashrif buyurib, xitoy an'anaviy san'ati bo'yicha talabalarning mustaqil ijodiy ishlarini tomosha qildilar..

Jilin xalqaro ta'lim universiteti xususiy universitet bo'lib, u 1995-yilda tashkil etilgan. Hozirgi kunda ushbu universitetda taxminan 14 ming nafar talaba tahsil olmoqda.

So'nggi 5 yil davomida universitet xususiy gumanitar universitetlar reytingida birinchi o'rinni egallab kelmoqda hamda dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidagi 200 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari, jumladan, O'zbekistonning 6 ta universiteti bilan hamkorlik qilmoqda. Bundan tashqari, ta'lim sohasida 10 dan ortiq xalqaro tashkilotlar, jumladan, YUNESKO bilan hamkorlik aloqalariga ega.

Shuningdek, xizmat safari davomida Nodirbek Sayfullayev **Pekin Ipak yo'li madaniy almashinuv markazining** hammuassisi Elli Ma xonim bilan uchrashuv o'tkazdi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2025-yil 16-yanvar kuni investitsiyalarni keng jalb etish va eksport hajmini oshirish borasidagi ishlar natijadorligi va kelgusidagi asosiy vazifalar muhokamasi bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bugungi kunda har bir oliy ta'lim muassasasi oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Uchrashuvda ayni shu jihatlarga e'tibor qaratildi.

Markaz madaniyat va san'at sohalariga katta qiziqish

bildirayotgani va xitoylik talabalar hamda magistrantlar uchun bizning institutimizda o'qishni tashkil etish masalasini ko'rib chiqishga tayyor ekanligini ma'lum qildi.

Ma'lumot o'rnida, Pekin Ipak yo'li madaniy almashinuv markazi ta'lim sohasida 20 yildan ortiq vaqt davomida faoliyat olib borayotgan bo'lib, xitoylik yoshlarni AQSH, Yevropa va Osiyoning nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o'qishini tashkillashtirish, shuningdek, boshqa davlatlar yoshlarini Xitoy oliygohlarida tahsil olishiga ko'maklashish bilan shug'ullanadi.

Umuman olganda, ushbu safar institutning xalqaro aloqalarini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadigan uchrashuv va hamkorlik kelishuvlariga boy bo'ldi. Eng muhimi hamkorlik o'rnatilgan oliygohlar nafaqat Xitoy, balki jahonda ham o'z mavqeyiga ega hisoblanadi.

Tashrif davomida vakillarimiz ushbu oliygohlarda o'quv jarayonlariga tadbiq etilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan ham yaqindan tanishib, tajriba orttirishdi.

Yana bir muhim jihatni alohida qayd etish joziki, bugungi kunda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi Xitoy Xalq Respublikasida ham bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamda o'zbek san'ati va madaniyatiga qiziqish yuqori. Vakillarimiz tashrif buyurgan barcha oliy ta'lim muassasalari rahbariyati o'rnatilgan hamkorlikdan mamnun bo'lib, kelgusida bu hamkorlikni yanada kengaytirish taklifini bildirishdi.

Buning yagona sababi bugun yurtimizda Muhtaram Yurtboshimiz rahnomaliklarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar hamda jahon hamjamiyati bilan olib borilayotgan oqilona tashqi siyosat desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat da navbatdagi yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Unda 0‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-sentyabrdagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida ta‘lim sohasida davlat boshqaruvi takomillashtirilishi munosabati bilan 0‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘RQ-957-son Qonunining mohiyati va ahamiyati tog‘risida tushuntirish ishlari olib borildi.

✓Yig‘ilishda barcha prorektorlar, bo‘lim boshliqlari, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari va tyutorlar ishtirok etdi.

Tailand qirolligida 0‘zbekiston madaniy merosi taqdimoti o‘tkazildi

0‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda YUNESKO bosh konferensiyasi 43-sessiyasining Samarqand shahrida o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-128-sonli Qarori ijrosini ta‘minlash

maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti delegatsiyasi tomonidan Tailandning Bangkok shahridagi Chulalongkorn universitetida O'zbekiston tarixi va milliy madaniyatimizga bag'ishlangan targ'ibot tadbiri tashkil etildi.

Tadbir avvalida O'zbekiston Respublikasining Bangkok shahridagi Bosh konsuli, BMTning Osiyo va Tinch okeani Iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasining (ESKATO) doimiy vakili Faxriddin Sultonov hamda institut prorektori Shohbek Ergashev so'zga chiqdi.

Tadbirda ulug' ajdodlarimizning ilmiy-ma'rifiy merosi haqida hikoya qiluvchi taqdimotlar, milliy hunarmandchilik va qandaolat mahsulotlari namunalari ko'rgazmasi namoyish etildi.

Shuningdek, institut professor-o'qituvchilari hamda talaba-yoshlari tomonidan milliy kuy-qo'shiq va raqslar hamda mumtoz g'azallardan iborat teatrlashtirilgan konsert dasturi namoyish etildi.

Vakillarimiz bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, buning natijasida yuz berayotgan ulkan o'zgarishlar, O'zbekistonning turizm salohiyati, tarixiy obidalari haqida ham ma'lumot berib o'tishdi.

Quvonarli tomoni, tadbir ishtirokchilarining aksariyati yurtimiz hamda o'zbek san'ati va madaniyati to'g'risida, ayniqsa, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida yetarli ma'lumotga ega ekanliklarini hamda bu o'zgarishlarni katta qiziqish bilan kuzatib borayotganliklarini ta'kidlab o'tishdi.

Tadbirda Chulalongkorn universiteti vakillari bilan bir qatorda turli tashkilotlari va diplomatik korpus vakillari, xorijiy oliy ta'lim muassasalari talabalari va keng jamoatchilik ishtirok etishdi.

Institut delegatsiyasi tarkibidan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Milliy qo'shiqchilik kafedrasida professori

Axmatjon Dadayev (g'ijjak cholg'usi ijrochisi va xonanda), Sahna nutqi kafedrası professori, san'atshunoslik fanlari nomzodi Go'zal Xoliqulova (boshlovchi, g'azal ijrochisi), Sahna harakati va jismoniy madaniyat kafedrası dotsenti, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Sardor Mannonov (boshlovchi va rejissyor), Milliy qo'shiqchilik kafedrası katta o'qituvchisi Qahramon To'rayev (doira cholg'usi ijrochisi), Cholg'u ijrochiligi kafedrası dotsenti Yusuf Vaxidov (nay cholg'usi ijrochisi), Folklor va etnografiya kafedrası o'qituvchisi Oybek Xamroyev (qashqar rubobi ijrochisi va xonanda), Estrada aktyorligi san'ati ta'lim yo'nalishi talabalari Diyorabonu Olimova va Aziza Nuriddinova (milliy raqs ijrochilari) va boshqalar o'rin oldi. Mazkur tadbirlar davlatchiligimiz rivojining uch ming yildan ziyod tarixi, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma'naviy merosi hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijalarini xorijiy davlatlarda keng targ'ib qilish hamda ular bilan hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish maqsadida tashkil etilmoqda.

**0'zbekiston davlat san'at va
madaniyat institutida
an'anaga muvofiq Besh
tashabbus olimpiadasi
doirasida navbatdagi**

musobaqalar tashkil etildi hamda musobaqa g'oliblariga institut rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari diplom va kuboklar topshirildi.

Bugungi kunda "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalari yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, iqtidorli sportchilarni saralash hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shib kelmoqda.

□ O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida an'anaga muvofiq Besh tashabbus olimpiadasi doirasida navbatdagi musobaqalar tashkil etildi hamda musobaqa g'oliblariga institut rahbariyati tomonidan esdalik sovg'alari diplom va kuboklar topshirildi.

✓ □ G'oliblarni taqdirlash uchun so'zga chiqqan institut rektori, professor Nodirbek Sayfullayev san'at va sport doimo yonma yonligini, ijodkorning sport bilan shug'ullanishi uning ijodiy kamolotida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini hamda institutda talabalarni sport bilan mashg'ul bo'lishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilganini qayd etib o'tdi.

□ □ Qizg'in bahslarga boy o'tgan musobaqalar yakunida g'oliblar ro'yxati quyidagicha ko'rinish oldi:

□ Futbol musobaqalarida Xalq ijodiyoti fakulteti jamoasi;

□ Volleybol musobaqalarida (qiz bolalar o'rtasida) Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti jamoasi;

□Shaxmat musobaqalarida (qiz bolalar o'rtasida) Rahmatova Maftuna Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi;

□ Shaxmat musobaqalarida (o'g'il bolalar o'rtasida) Mamaraimov Bobur Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi;

□Shashka musobaqalarida (qiz bolalar o'rtasida) Choriyeva Madina (Kutubxona-axborot faoliyati fakulteti talabasi;

□Shashka musobaqalarida (o'g'il bolalar o'rtasida) Ro'ziyev Elbek Teatr san'ati fakulteti talabasi;

□Stol tennisi musobaqalarida (qiz bolalar o'rtasida) Suvanova Chexroza Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi;

□Stol tennisi musobaqalarida (o'g'il bolalar o'rtasida) Xasanov Og'abek Xalq ijodiyoti fakulteti talabasi.